XALQ DEPUTATLARI KOSONSOY TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-14-121-6-80-K/25 Kosonsoy tumani

Kosonsoy tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02/10-7130-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Kosonsoy tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Kosonsoy tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari **165 007 611,0 ming.so‘m** va xarajatlari esa **165 007 611,0 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi shuningdek Kosonsoy tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 355 061**,0 ming so‘m.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. 3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy

budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiqma’lumot uchun qabul qilinsin, shuningdek Kosonsoy tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **2 016 506,0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Kosonsoy tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi **(E.Toshpulatov),** tuman soliq inspeksiyasi**(A.Xolmatov)** bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (E.Toshpulatov) hamda bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Kosonsoy tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (J.Abdullaev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **KADIROV DILMUROD GAFUROVICH**

Xalq deputatlari Kosonsoy tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-121-6-80-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Kosonsoy tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so‘mda

№	Daromad turlari	Kosonsoy tumani
	JAMI	**165 007 611**
1	Foyda solig‘i	1 215 700
2	*Norezidentlar foydasidan soliq*	
3	Aylanmadan olinadigan soliq	9 591 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	79 825 500
	shundan, mol-mulkini ijaraga berishdan tushumlar	540 000
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	6 554 240
6	**Aksiz solig‘i**	**12 717 000**
	yakuniy iste’molchi (benzin,dizel va gaz uchun)	*12 717 000*
7	**Mol-mulk solig‘i**	**21 111 000**
	yuridik shaxslar	*8 735 000*
	jismoniy shaxslar	*12 376 000*
8	**Er solig‘i**	**28 578 371**
	yuridik shaxslar	*9 675 000*
	jismoniy shaxslar	*18 903 371*
9	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	463 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 997 800
11	**Boshqalar**	**1 954 000**
	DUK sof foydasidan ajratmalar	

	Davlat boji	*669 300*
	Yig‘imlar	*166 900*
	Jarimalar	*869 800*
	Davlat mulkini ijarasi	*248 000*

Xalq deputatlari Kosonsoy tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-121-6-80-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Kosonsoy tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Kosonsoy tumani
	Xarajatlar miqdori, jami	**165 007 611**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*61 357 840*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*3 337 200*
3	Madaniyat bo‘limi	*8 340 559*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*6 593 213*
5	Sport bo‘limi	*8 490 334*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*0*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3 415 360*
8	Irrigasiya bo‘limi	*2 502 585*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*0*
	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi *Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari*	*89 984*
10	Hokimiyat	*55 111 258*
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*2 488 459*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 954 145*
	Madaniyat bo‘limi	*145 532*
	YOshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*426 506*
	Investisiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*172 123*

	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*447 399*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*637 780*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*386 183*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*28 474 364*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1 579 000*
	Zahira jamg‘armasi	*2 016 506*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi)	*960 799*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*96 208*
	Axborot-kutubxona markazlari	*864 591*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	18 145 679
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Kosonsoy tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-121-6-80-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Kosonsoy tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlar

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	90%
	Viloyatning viloyat byudjetiga	MRI	100%
		DSB	10%
Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Tumanlar byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
	Viloyatning viloyat byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
QQS	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	95%
	Viloyatning viloyat byudjetiga	MRI	100%
		DSB	5%
Foyda solig'i	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	10%
	Viloyatning viloyat byudjetiga	MRI	100%
		DSB	90%
benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizasiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
	Viloyatning viloyat byudjetiga	MRI	100%
		DSB	0%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
	Viloyatning viloyat byudjetiga	MRI	100%
		DSB	0%
Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	100%
	Viloyatning viloyat byudjetiga	MRI	100%
		DSB	0%
Qurilish materiallari bo'yicha er	Tumanlar byudjetiga	MRI	100%

qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		DSB	100%
	Viloyatning viloyat byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tumanlar byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
	Viloyatning viloyat byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Davlat ulushi bo’yicha dividendlar	Tumanlar byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
	Viloyatning viloyat byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Aylanmadan soliq	Tumanlar byudjetiga		100%
	Viloyatning viloyat byudjetiga		0%
Davlat boji	Tumanlar byudjetiga		6%
	Viloyatning viloyat byudjetiga		94%
Jarima	Tumanlar byudjetiga		10%
	Viloyatning viloyat byudjetiga		90%
Yig’imlar	Tumanlar byudjetiga		5%
	Viloyatning viloyat byudjetiga		95%